

UDK: 631.11:633.15

OZUQABOP LAVLAGINI QAYSI USULDA SUG'ORISH KERAK

Raxmonov Raxmatullo Umaraliyevich - q.x.f.f.d (Phd) dotsent

Sayfiddinov Shahobiddin Faxriddin o'g'li - talaba

Ergasheva Sabrina Alisher qizi - talaba

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik

va biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada ozuqabop lavlagini yetishtirishda sug'orish texnologiyalarining ahamiyati yoritilgan. O'simlikning suvga bo'lgan talabi, vegetatsiya davridagi sug'orish muddatlari va me'yorlari tahlil qilingan. Shuningdek, egatlab, tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish usullarining afzalliklari va kamchiliklari solishtirilib, ularning suv tejamkorligi va hosildorlikka ta'siri ko'rsatib berilgan. Zamonaviy sug'orish usullaridan foydalanish orqali suv resurslarini tejash va yuqori hosil olish imkoniyatlari asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: ozuqabop lavlagi, sug'orish texnologiyasi, egatlab sug'orish, tomchilatib sug'orish, yomg'irlatib sug'orish, suv tejamkorligi, hosildorlik, vegetatsiya davri, qishloq xo'jaligi, suv resurslari

Аннотация: В данной статье рассмотрено значение технологий орошения при выращивании кормовой свёклы. Проанализированы потребности растения в воде, сроки и нормы полива в течение вегетационного периода. Также приведено сравнение методов орошения (бороздковый, капельный и дождевальный), их преимущества и недостатки, а также влияние на водосбережение и урожайность. Обоснована эффективность применения современных методов орошения для экономии водных ресурсов и получения высокого урожая.

Ключевые слова: кормовая свёкла, технология орошения, бороздковое орошение, капельное орошение, дождевальное орошение, водосбережение, урожайность, вегетационный период, сельское хозяйство, водные ресурсы

Abstract: This article discusses the importance of irrigation technologies in the cultivation of fodder beet. The water requirements of the crop, irrigation timing, and norms during the growing season are analyzed. In addition, different irrigation methods (furrow, drip, and sprinkler) are compared in terms of their advantages and disadvantages, as well as their impact on water efficiency and yield. The effectiveness of modern irrigation methods in saving water resources and achieving high productivity is substantiated.

Keywords: fodder beet, irrigation technology, furrow irrigation, drip irrigation, sprinkler irrigation, water efficiency, yield, growing season, agriculture, water resources

Kirish. Qishloq xo'jaligida yem-xashak bazasini mustahkamlash chorvachilikni rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan ozuqabop ekinlar, ayniqsa, ozuqabop lavlagi yuqori hosildorligi va ozuqaviy qiymati bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur ekin suvga talabchan bo'lib, uning normal o'sishi va rivojlanishi uchun optimal sug'orish rejimini tashkil etish muhim hisoblanadi.

Hozirgi kunda suv resurslarining cheklanganligi sharoitida sug'orishning samarali va tejamkor usullarini qo'llash dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. An'anaviy sug'orish usullari bilan bir qatorda zamonaviy texnologiyalar — tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish tizimlari keng joriy etilmoqda. Ushbu maqolada ozuqabop lavlagini sug'orish usullari, ularning afzallik va kamchiliklari hamda suv tejamkorligi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Ozuqabop ekinlar orasida ozuqabop ildiz mevalardan asosan ozuqabop lavlagi ekib yetishtiriladi, bu boshqa ekinlarga nisbatan ancha suvga talabchan hisoblanadi.

Ozuqabop lavlagini jadal texnologiya asosida ekib o'stirish, uning jadal tipdagi yuqori hosilli navlaridan, jumladan, "O'zbekiston nim qand", "Hosildor", "Ekkendorf sariği" va "O'zbekiston 83" navlaridan foydalanish, yerni ekishga tayyorlash, ekish va o'simliklarni parvarish qilish davrlarida sug'orish rejimlariga, texnologik kartaga qat'iy amal qilgan holda ish tutishni hamda hosil yig'im-terimida mexanizmlardan imkon boricha to'liqroq foydalanish lozim bo'ladi.

Ozuqabop lavlagini seyalakalarning mavjud bo'lgan turlari yordamida qatorlarining kengligi 60, 70 yoki 90 sm qilib (muayyan xo'jalikning o'z shart-sharoitlarini hisobga olgan holda) markaziy zonada (Toshkent, Sirdaryo, Samarqand viloyatlari va Farg'ona vodiysida) mart oyining birinchi o'n kunligida, janubiy viloyatlarda fevral oyining oxirlarida, shimoliy viloyatlarda aprel oyida ekish tavsiya etiladi.

Ozuqabop lavlagini oziqlantirish.

Shudgorlashdan oldin gektariga 40–60 tonna chirigan go'ng, 60–90 kg dan fosfor va kaliy o'g'itlari solinadi (sho'r yerga kaliy o'g'itlari solish tavsiya etilmaydi).

Azotli o'g'itlar karbamid yoki ammiakli selitra uch marta: ekish bilan bir vaqtda gektariga 30 kg dan, qolgan qismini esa o'simlik birinchi va ikkinchi sug'orish oldidan birinchi va ikkinchi oziqlantirish paytida gektariga 100–120 kg dan solinadi. 10 iyuldan keyin solish maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Ozuqa lavlagi yetishtirishda sug'orish texnologiyasi muhimdir, chunki bu ildizmeva me'yorida o'sishi va yaxshi hosilni shakllantirishi uchun yetarli namlikni talab qiladi. O'simlik may oyida birinchi marotaba, iyun oyida ikkinchi marotaba



sug'oriladi. Ozuqabop lavlagi eng issiq davrlarda (iyun–iyul oylarida) har 7–10 kunda, avgust oyida har 15–16 kunda, sentabr–oktabr oylarida bir marotabadan sug'oriladi. Ozuqabop lavlagi yetishtirib olish uchun vegetatsiya davrida an'anaviy egatlab sug'orilganda gektariga 8000–12000 m³/ga suv talab etiladi. Zamonaviy (tomchilatib, yomg'ir va boshqalar) suv tejovchi usulda sug'orishni yo'lga qo'yish orqali suv



hajmini bir muncha qisqartirish mumkin.

Sug'orish usulini to'g'ri tanlash iqlim sharoitiga, tuproq turiga va suv resurslarining mavjudligiga bog'liq. Ozuqabop lavlagini sug'orishning asosiy usullari mavjud:

Ozuqabop lavlagini egatlab sug'orish. Bu usul an'anaviy

ravishda suv resurslari yaxshi bo'lgan hududlarda, ozuqabop lavlagi qatorlari orasidagi egatlar orqali sug'oriladi. Oddiy va arzon usul, dalaga qo'shimcha sug'orish uskunalari o'rnatishni, qo'shimcha xarajatlarni talab qilmaydi. Kuchli yomg'ir va yaxshi suv ta'minotida samarali bo'lishi mumkin.

Kamchiliklari: suvning notekis taqsimlanishi, yer tekis bo'lmasa bu ba'zi joylarning botqoqlanishiga va boshqalarning namlanishiga olib kelishi mumkin. Bug'lanish tufayli suv yo'qotilishi, suv sarfining oshib ketishiga sabab bo'ladi.



Ozuqabop lavlagini tomchilatib

sug'orish. Tomchilatib sug'orish ozuqabop lavlagi uchun samarali usul hisoblanadi, ayniqsa, qurg'oqchil va suv resurslari cheklangan hududlarda. Suv to'g'ridan-to'g'ri o'simlik ildizlariga yetkazib beriladi, bug'lanish va yo'qotishlarni minimallashtiradi. O'simliklar namlikni muntazam va kerakli miqdorda oladi. Suv barglarga tushmaydi, bu zamburug' kasalliklari ehtimolini kamaytiradi.

Tomchilatib yuborish tizimlarini o'rnatish uskunalari xarajatlari talab qiladi, ammo uzoq muddatda suvni tejaydi va hosildorlikni oshiradi. Katta maydonlarni bir tekis sug'orish uchun juda mos keladi.

Ozuqabop lavlagini yomg'irlatib sug'orish. Yomg'irlatib sug'orish usuli yoki purkagichli sug'orish ozuqabop lavlagi sug'orishda, ayniqsa katta maydonlarda, suv tanqis yerlarda keng qo'llaniladi. Sprinklerlarning joylashishini osongina o'zgartirish va tizimni turli sharoitlarga moslashtirish mumkin. Katta maydonlarda samaradorligi yaxshi bo'ladi, ayniqsa sug'orishni avtomatlashtirish mavjud bo'lsa.

Kamchiliklari: bug'lanish tufayli suv yo'qotilishi, ayniqsa issiq havoda. Tomchilatib sug'orish bilan solishtirganda ko'proq suv talab qiladi.

1-jadval.

Ozuqabop lavlagi yetishtirishda mavsumiy suv sarfi

T/r	Ekin turi	Sug'orish lar soni	Egatlab (m ³ /ga)	Tomchilatib (m ³ /ga)	Yomg'irlatib (m ³ /ga)	Tejalish (tomchilatib)	Tejalish (yomg'irlatib)
1	Ozuqabop lavlagi	8–10	8000–12000	4000–7000	4500–8000	42–50%	43–65%

Ozuqabop lavlagi vegetatsiya davri uzun (170–180 kun) va suvga talabchan ekin hisoblanadi. Mavsum davomida an'anaviy usulda o'rtacha 8–10 marta sug'oriladi, tuproq mexanik tarkibi yengil tuproqlarda va yozda harorat ko'tarilib ketsa, undan ham ko'proq — ya'ni 10–15 martagacha sug'orishga to'g'ri keladi.

Ozuqabop lavlagini tomchilatib sug'orish usulida suv sarfi 42–50 foizga, yomg'irlatib sug'orish usulida 43–65 foizgacha tejalishi mumkin.

Ozuqabop lavlagini egatlab sug'orishda o'qariqlar oralig'ini 70–80 metr qilib qilish tavsiya etiladi.

Xulosa. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, ozuqabop lavlagi yetishtirishda sug'orish texnologiyasini to'g'ri tanlash yuqori hosil olishning asosiy omillaridan biridir. An'anaviy egatlab sug'orish usuli oddiy va arzon bo'lishiga qaramay, suv sarfining yuqoriligi va notekis taqsimlanishi bilan ajralib turadi.

Zamonaviy sug'orish usullari, xususan tomchilatib sug'orish, suv resurslarini sezilarli darajada tejash bilan birga o'simliklarning bir maromda rivojlanishini ta'minlaydi va hosildorlikni oshiradi. Yomg'irlatib sug'orish ham ma'lum sharoitlarda samarali hisoblanadi, ayniqsa katta maydonlarda.

Shu bois, iqlim sharoiti, tuproq xususiyatlari va suv ta'minotidan kelib chiqib, eng



maqbul sug'orish usulini tanlash muhimdir. Zamonaviy suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish orqali nafaqat suv resurslarini asrash, balki qishloq xo'jaligi samaradorligini oshirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qodirov A., Tursunov B. Ozuqabop lavlagi yetishtirish texnologiyasi. Toshkent: Qishloq xo'jaligi nashriyoti, 2018. – 128 b.
2. Karimov S. Sug'orish texnologiyalari va suv resurslarini tejash. Samarqand: Samarqand davlat agrar universiteti nashriyoti, 2020. – 95 b.
3. Rustamov M., Xudoyberdiyev F. Zamonaviy sug'orish tizimlari: tomchilatib va yomg'irlatib sug'orish. Toshkent: Fan va texnologiya, 2019. – 110 b.
4. Sulstonov N. Ozuqabop lavlagida sug'orish rejimlari va hosildorlikni oshirish usullari. Qishloq xo'jaligi ilmiy jurnali, 2022, №3, s. 45–53.
5. Mirzaev T. Qishloq xo'jaligida suv tejash texnologiyalari. Farg'ona: Farg'ona viloyati qishloq xo'jaligi ilmiy markazi, 2020. – 88 b.